

**DIVERSITY IN LITERARY VIEWS (ON THE EXAMPLE OF SHUKUR
KHOLMIRZAYEV'S WORK)**

Quvvatova Sayyora

SamSU Literary Studies: Uzbek Literature Direction 2nd year master's student

Annotation

This article analyzes the views of Shukur Kholmirezayev, a representative of diverse literature, his works on the topics of "Nature and Man", social era and environment.

Keywords

naturalist, creative writer, story, cruel realism, "The Death of a Hunter", "Bandy Eagle".

**ADIB QARASHLARIDA RANG-BARANGLIK (SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI
MISOLIDA)**

Quvvatova Sayyora

SamDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada serqirra adabiyot vakili Shukur Xolmirzayevning qarashlari, "Tabiat va inson", ijtimoiy davr va muhit mavzusida yozilgan asarlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar

tabiatshunos ijodkor, hikoya, shafqatsiz realizm, "Omon ovchining o'limi", "Bandi burgut".

Kirish. Adabiyot olamida shunday ijodkorlar borki, ular bir paytning o'zida turli janrlarda ham qalam tebrata oladi va turli kasblarda ham o'zini ko'rsata oladi. Zero, ular serqirra ijodkorlar bo'lib, so'z olamida o'z o'rniga ega bo'lgan, o'z so'zini ayta olgan ijodkorlardir. Birgina Fitrat, Cho'lpon kabi jadidlar ham shoir, yozuvchi, dramaturg, muharrir bo'lib faoliyat ko'rsatgan. Shunday serqirra ijodkorlardan yana biri Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-mart kuni Boysun tumanida dunyoga kelgan.

Adibga nisbatan shunday ta'riflar ishlatiladi: "Adabiyotga Surxon koloritini — o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini — dialektini olib kirgan"¹. Darhaqiqat, ijodkor voha xalqiga xos xarakterga ega, o'z so'zini hayiqmay ayta oladigan, adolat qaror topishini xohlaydigan, ijodkor do'stlarini ham o'rni kelganda tanqid qiladigan munaqqid ham edi.

¹ Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalari badiiy-uslubiy o'ziga xosligi. Filolog. fan. nom. diss. avtoref. - Toshkent: 1995.-28b.

Muhokama va natijalar. Adabiyot atomdan kuchli, uning kuchini kerakli o'rinda ishlatish darkor. Ijodkorga Alloh tomonidan berilgan iste'dodni to'g'ri yo'naltira olishi zarur. Buni kam sonli insonlar uddasidan chiqqan. Shuning uchun daholarga nisbatan oddiy odamlar ko'pdir yer yuzida. Tabiatni sevishni ko'ngliga jo qilgan Shukur Xolmirzayev chinakam iste'dod sohibi bo'lib, yozuvchi bo'lish bilan bir qatorda mohir aktyor, rejissor edi. Ba'zida Shukur Xolmirzayevni tabiatshunos timsolida ham ko'ramiz. Tabiatni yaxshi bilishi, sevishi, asrashi, uni adabiyotda aks ettirishi — tabiatga, Boysunga bo'lgan sevgisini yana bir bor oqlaydi.

Adib o'zining mohir hikoyanavis bo'lishini yaxshi yozuvchilar hikoyalarini o'qib boshlagandan deb biladi. "Klassiklar deganda men to'rtta ulug' hikoyanavisni eslatish bilan kifoyalanaman: rus adabiyotida Chexov, ingliz adabiyotida Jek London, hind adabiyotida Tagor va o'zimizning adabiyotda esa Abdulla Qahhor"². Yozuvchi doimo asarlarida realikka intiladi. Asarlaridagi deyarli barcha qahramonlar hayotda uchragan, o'zi guvoh bo'lgan voqealar zamiriga qurilgan. Shukur Xolmirzayev ijodiga qiziqqan, uni yaxshi bilgan kitobxon shuni anglab yetadiki, yozuvchi doimo diqqat markazida turadigan, barcha uchun tegishli bo'lgan muammolarni mavzu qilib olib chiqadi. Shu o'rinda ijodkor o'zi uchun quyidagi misralarni shior qilib oladi. "Yozuvchining vazifasi-muammoni yechish emas, qo'yishdir"³. Har bir asari ma'lum bir maqsadda yozilgan. Bir so'z bilan aytganda, muammoni shunday ko'rsatadiki, go'yoki ko'zguda o'zini ko'rgandek bo'ladi. Adib hech qachon bir mavzu doirasida yozmaydi, u har safar yangi va muammoli savollarga javob bo'luvchi asar ustida bosh qotiradi. Bundan tashqari, adib qarashlari ham rang-barangdir.

Ba'zida adib tabiatshunos sifatida asar yozadiki, go'yo u hayvonlar tilini biladigandek, tabiat bilan tillasha oladigan, uni tushunadigan inson sifatida asarlarini jonlantiradi. Yozuvchi asarlarini o'qigan kitobxon tabiatga jo'n ko'z bilan qaray olmaydi. "Tabiat va inson" mavzusi Shukur Xolmirzayev asarlarining yetakchi mavzularidan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Misol sifatida quyidagi "Jarga uchgan odam", "Omon ovchining o'limi", "Bandi burgut" hikoyalarini olishimiz mumkin.

"Omon ovchining o'limi" hikoyasida e'tibor qarataylik. Ovchini biz bilamizki, yovvoyi hayvon va qushlarni ov qiladi. Ammo "Omon ovchining o'limi" nomi ostida asarga shunday nom berilishi kitobxon qiziqishini oshiradi. Asar dastlab Omon ovchiga ta'rif berish bilan boshlanadi. U ovdan qaytsa, otasi o'lganday aza tutib olar edi. Undagi bu xususiyatlar yozuvchi tomonidan Rahmon polvondan o'tganligi ko'rsatiladi. Uning otasi polvon bo'lib, hammaga kurash tushib yenggan, ammo bir safar o'zi yiqilganda omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, ustiga yotib, yo'tal orttirib, qon qusa-qusa vafot etgan. Polvonlik halol va mard o'yin. Unda kimdir yutqazsa, yana kuch to'plab yutishi mumkin. Rahmon polvon esa bunga chiday olmadi. Yozuvchi Omon ovchidagi bu xususiyatlar otasidan o'tganini dalillash orqali kitobxonga yetkazadi.

Asar davomida qishloqda yirtqichlar paydo bo'lib, hamma tark etadi. Omon ovchi ketmaydi. Xotini ketaylik desa, unga taloq qo'yadi. Yozuvchining yana bir mahorati shundaki, taloq qo'ygan Omon ovchi xotini yana qaytib keladi, deb o'ylaydi. Bu bilan Omon ovchining dunyoqarashi keng emasligi ko'rsatiladi. U yolg'iz qoladi. Ko'p ov qilaman deb oyog'ini sindirib oladi.

² Xolmirzayev Sh. Hikoya haqida//Sharq yulduzi, 1971.

³ Xolmirzayev Sh. Muammolarning muammosi - odam (Suhbatdosh Shodmon Otabek)//O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986-yil 16-dekabr.

Oyog‘i gipslangan holatda ham u ochko‘zlik qilib ov qilishga kirishadi. Keyingi kunlarda uyi atrofida bo‘rilar izini ko‘radi. Bo‘rilar ham ovga chiqqani aniq edi. Kaklik ovlash uchun emaklab bo‘lsa ham harakat qiladi va qor bilan yumalab halok bo‘ladi. Yozuvchi Omon ovchining o‘limini shunday tasvirlaydi:

“Bir gala masliqxo‘r g‘ajirlar yulg‘unzor ichida go‘yo qor suparisida yotgan bir kimsani cho‘qib-cho‘qib yer edi”.

“Bandi burgut” hikoyasida esa yaralangan burgutni parvarishlagan bola, ammo uni qafasda saqlagani, ro‘parasida fosfordan yasalgan sun‘iy burgut bo‘lgani tasvirlanadi. Asar yakunida ozodlikka chiqqan burgut uchib ketish o‘rniga fosfor burgutni parchalab, halok bo‘ladi. Bolalar burgutni matoga o‘rab qabristonga dafn etishadi. Biz bilamizki, burgut erk va ozodlik ramzidir. “Omon ovchining o‘limi” asarida Omon ovchi hatto dafn etilmaydi. Burgut esa xuddi insonlarday dafn etiladi. Yozuvchi ba‘zi insonlardan ko‘ra hayvon yoki qushlarda bo‘lgan fazilatlarni ulug‘laydi.

“Bandi burgut” asaridagi burgutni o‘sha davr ijodkorlari, jadidlarimizga ham qiyoslash mumkin. Burgut o‘zini o‘ylab uchib ketishi mumkin edi, ammo fosfor burgutni ko‘rib, kimningdir qaramog‘ida bo‘lishdan g‘ashi kelib, uni parchalab tashlaydi. Jadidlarimiz ham o‘z jonini o‘ylamay, xalqni ilmi va ma‘rifatli qilish uchun harakat qilishdi va maqsadlari yo‘lida qurbon bo‘lishdi. Aynan Shukur Xolmirzayev ijodida birinchi bo‘lib o‘zbek xalqi tarixining “bosmachilik harakati” deb atalgan davrini o‘rganish boshlandi. “Bandi burgut” hikoyasida ham burgut bir paytlar bosmachilar ko‘milgan qabristonga ko‘milganiga ishora qilinadi.

Adib ijodida ijtimoiy davr ruhi yoritilgan asarlar ham mavjud. “Yashil Niva” hikoyasida mustabid tuzum keltirib chiqargan qo‘rquv mashina vositasi orqali ochib beriladi. “Dinozavr” romanida esa mustaqillikka erishgan xalq ongida bo‘layotgan o‘zgarishlar ziyolilar hayoti yordamida yoritiladi. Kimdir bunda o‘zligini saqlab qolsa, kimdir muhitga moslashadi.

Shu bilan bir qatorda, Shukur Xolmirzayev o‘zbek urf-odatlarini, Surxon muhitini, o‘zbek xarakterini mohirona tarzda o‘quvchiga his qildiradi. “O‘zbek xarakteri” hikoyasida adib o‘zining talabalik davri voqealarini gavdalantirib, o‘zbek xalqining adabiy ruhini ramziylashtiradi. Asarda milliy qadriyatlar, mehr, bag‘rikenglik va soddalik tushunchasi yonma-yon qo‘yiladi. Shukur Xolmirzayev adabiyotga shafqatsiz realizm tushunchasini olib kirgan ijodkordir. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhordan so‘ng hikoya yozish maktabini shakllantira olgan adibimiz adabiyotga yangi qahramonlar olib kira oldi. Shu mavzu yuzasidan adibimizga “O‘zbek tili va adabiyoti” gazetasining 1987-yilgi,4-sonida quyidagicha savol beriladi:

”O‘zbek adabiyotining kelgusi taraqqiyotida Abdulla Qahhorning qaysi ijodiy an‘analari,sizning nazaringizda,davom ettirilishi va rivojlantirilishi lozim

Bizga yetishmay kelayotgan “narsa”lardan eng muhim gaplari -ijodda XALOLLIK hayotda MARDLIKdir. Qahhorda bu narsalar mujassam edi. Agar bularni ham “an‘analari davom ettirilishi va rivojlantirilishi lozim”,-deyman⁴.

⁴ Xolmirzayev Sh. Abdulla Qahhor saboqlari//O'zbek tili va adabiyoti, 1987.

Xulosa. Shukur Xolmirzayev qarashlarida rang-baranglik — bu nafaqat adabiy uslub yoki tasvir vositasi, balki hayotning o‘z mohiyati, tabiatning go‘zalligi, inson ruhining murakkabligi va milliy o‘zlikning boyligi sifatida talqin etiladi. U ijodida romantizm va realizmni, xalqona til va falsafiy chuqurlikni uyg‘unlashtirib, o‘zbek adabiyotiga chinakam rang-baranglik olib kirdi. Adibning asarlari o‘quvchida nafaqat hayrat, balki milliy g‘urur va hayotni ko‘p qirrali qabul qilish tuyg‘usini uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi. Filolog. fan. nom. diss. avtoref. - Toshkent: 1995.-28b.
2. Xolmirzayev Sh. Hikoya haqida//Sharq yulduzi, 1971.
3. Xolmirzayev Sh. Muammolarning muammosi - odam (Suhbatdosh Shodmon Otabek)//O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986-yil 16-dekabr.
4. Xolmirzayev Sh. Abdulla Qahhor saboqlari//O'zbek tili va adabiyoti, 1987.

